

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-3/3

Вестник Хорезмской академии Маъмуна

Издается с 2006 года

Хива-2023

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Таҳрир хайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович,</i>	<i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д.,</i>
<i>т.ф.д., проф.</i>	<i>проф.</i>
<i>Агзамова Гулчеҳра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Бабаджанов Хушнўт, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машаритовна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Буриев Хасан Чўтбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сотилов Гойитназар, к/х.ф.д., проф.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович,</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>б.ф.д., академик</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Жуманов Мурат Арпбаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Каримов Улўзбек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Қурбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Қўтлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Эичанов Рузўмбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i>
<i>Ламерс Жон, к/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Мирзаева Гўлнара Саидарифовна, б.ф.д.</i>	<i>Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№3/3 (99), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 165 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2023

Saidova M.U., Abdurakhmonova M.O. The factors in planning speaking activities in foreign language classes	113
Saidova M.U., Boboeva Z. The significance of communicative approach in teaching students of different ages	116
Saidova M.U., Saidkulova D.E. Til tizimlarini o'qitishda kommunikativ yondashuv	120
Sindorov R.U. Chet tili o'qitish metodikasida lingvomadaniyatshunoslikka oid til birliklaridan samarali foydalanish	125
Sobirova G.R. Talabalarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribalari	128
Sultanov B., Rustamova D. Boshlang'ich sinflarda asosiy miqdorlarni o'rgatishda ko'rgazmalilikning ahamiyati	130
Tosheva M.Yu. O'smirlarda stressga barqarorlikni ta'minlashning psixologik omillari	133
Turgunova M.T. The role of using authentic materials in efl teaching and learning	135
Xakimova D.M. Uzluksiz kasbiy ta'lim jarayonida o'qituvchi innovatsion salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik ahamiyati	137
Zakirova Kh.A. Teaching language skills through authentic pictures in ESP classes	141
Алленова И.В. Цифровые технологии в организации самостоятельной работы студентов при обучении русскому языку в ВУЗе	144
Икрамова М.Х. Бўлажак технология фани ўқитувчиларини касбий компетенциясини ривожлантириш миқдорий характеристикаси	146
Маруфов Э.У. Мустақил таълимда инглиз тили амалий фонетикасини ўрганишда ностандарт тестлардан фойдаланиш	149
Ташева У.Т. Особенности внедрения информационных технологий в организацию самостоятельной работы студентов при обучении русскому языку	152
Турсунбоева М.А. Нофилологик факультет талабаларининг чет тилда касбий коммуникатив компетенциясини шакллантириш муаммолари	154
Хамдамова В.А., Башинова С.Н., Кокорева О. Масофадан ўқитиш таълим тизимида фаолият кўрсатувчи ўқитувчилар касбий сифатлари	157
Чориева Ф.Т. Лингводидактикада компетенция ва компетентлик категорияларини татбиқ этилишининг мазмуний тавсифи	159
Шарипова И.А. STEAM-образование как инновационная технология для обучения иностранным языкам	162

5. Swan, Michael. "A critical look at the Communicative Approach ". ELT Journal. 39, 1985 (1): 2–12. doi:10.1093/elt/39.1.2. ISSN 0951-0893.

6. Swan, Michael "A Critical look at the Communicative Approach (2)". ELT Journal. 39, 1985 (2): 76–87. doi:10.1093/elt/39.2.76. ISSN 0951-0893.

UO'K 378.1:811

TIL TIZIMLARINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV

M.U. Saidova, dots., PhD, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

D.E. Saidkulova, magistratura talabasi, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqola tilning o'ziga xos jihatlarini o'rgatish, ma'noni tushuntirish, til qurilishini tushuntirish, amaliyot va nazorat qilinadigan amaliyot, til tizimlarini o'rgatish misollariga bag'ishlanadi. Deduktiv va induktiv yondashuvlar o'rtasidagi farqni, ma'noni tushuntirishning turli usullarini, o'rganilayotgan tilning turli xil amaliyotlarda foydalanilishini, yangi so'zlarni ilk marotaba talabalar e'tiboriga havola etish usullari va yod olish texnikasini tushuntirishga harakat qildik. Bunda Biz asosan Harmerning kitobaridan foydalandik va o'z nuqtai nazarimiz bilan bo'lishdik.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitish, til tizimini o'qitish, deduktiv yondashuv, induktiv yondashuv, ma'noni tushuntirish, til qurilishi, grammatika, lug'atni o'rgatish, talaffuzni tushuntirish.

Аннотация. Данная статья посвящена примерам обучения конкретным аспектам языка, объяснению значения, объяснению построения языка, практике и контролируемой практике, а также обучению языковым системам. Мы старались объяснить разницу между дедуктивным и индуктивным подходами, разные способы использования изучаемого языка в разных практиках, способы объяснения смысл новых слов учащимся, приемы запоминания. В основном мы пользовались книгой Хармера и делились своей точкой зрения.

Ключевые слова: обучение английскому языку, обучение языковой системе, дедуктивный подход, индуктивный подход, объяснение смысла, объяснение построения языка, объяснение грамматики, обучение словарному запасу, объяснение произношения.

Abstract. This article focuses on examples of teaching specific aspects of language, explaining meaning, explaining language construction, practice and supervised practice, and teaching language systems. We tried to explain the difference between deductive and inductive approaches, different ways of using the target language in different practices, ways of explaining the meaning of new words to students, memorization techniques. We mainly used Harmer's book and shared our point of view.

Key words: teaching English language, teaching language systems, deductive approach, inductive approach, meaning, language construction, grammar, vocabulary, pronunciation.

Kirish. Ingliz tilini o'qitishda tadqiqot va amaliyot to'rtta alohida bo'lgan ko'nikmalarni aniqladi, ular: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish. Oxirgi paytlarda, ko'nikmalarni integratsiyalash urf bo'lmoqda, bunda ko'nikma, masalan, o'qish ko'nikmasi, ikki yoki undan ortiq o'zaro bog'liq mahorat sifatida ko'rib chiqiladi [1]. O'qituvchi boshqa ko'nikmalarni qo'llamasdan, biror ko'nikmani o'rgata olmaydi. Biroq, ko'nikma borasida malakali bo'lish uchun, o'quvchi til qoidalarini hisobga olmasdan turib bu ko'nikmalarni osonlikcha o'zlashtira olmaydi. O'quvchi buning uchun birinchi navbatda til shakllarini o'zlashtirishi kerak va bu shakllar fonologik, grammatik va leksik shakllarni o'z ichiga oladi.

Ba'zi yondashuvlardan qat'iy nazar (direkt metod va tabiiy yondashuv) qaysilar til shakllariga ochiqdan-ochiq etiborni qaratishni taqiqlaydi, hali ham til shakllari yoki tizimlarini o'qitish tilni muvaffaqiyatli o'rganishda muhim bo'lib qolmoqda.

Til inson tomonidan muloqot qilish uchun ishlatiladigan tovushlar, so'zlar, til shakllari tizimi bo'lgani uchun inson tomonidan fikrlar va his-tuyg'ularini ifodalashida ishlatiladi [2], o'qituvchi sifatida tizim nima va qanday ishlashini o'rgatishimiz kerak. Yo'qsa, talabalarning birinchi tili va Ingliz tili tizimlari o'rtasida farqlar mavjud ekan talabalar muvaffaqiyatli muloqot qila olmaydi.

Bundan tashqari, til tizimlari o'quvchilarni azobga qo'ymasligi uchun biz tizimlarni nima va qanday qilib o'rgatish kerakligini bilishimiz kerak. Biz tizimni o'rgatishdan avval ma'lum bir

talabalarining yoshi, bilim va malaka darajasi, ruhiy holati, ijtimoiy va iqtisodiy holatlarini inobatga olgan holda, til tizimlarini o'qitishning mosligi haqida o'ylashimiz kerak. Jonson besh talabaga besh xil metod kerakligini ta'kidlaydi. Bu taxminan biz ma'lum bir talabalarni o'qitishda, ularga mos uslub va texnikani tanlashimiz kerakligini ko'rsatadi. Biz ma'lum bir material yoki metod barcha talabalarga mos keladi deb aytolmaymiz. Biz ma'lum bir materialni o'qitish uchun aynan mos bo'lgan uslubni o'zimizga aniqlab olishimiz kerak.

Quyida biz til tizimlari (lug'at, talaffuz va grammatika)ni amaliyotda qo'llashda shuningdek talabalarining xatolarini anglashida va uni samarali usullar bilan tuzatish uchun kerak bo'ladigan ba'zi bir texnika va tartiblarni muhokama qilamiz.

Birinchi navbatda til tizimini o'rgatishni ko'rib chiqsak, tilning o'ziga xos jihatlarini o'rgatish uchun biz odatda darsning borish jarayonidagi nazorat qilinadigan amaliyot bosqichi sifatida tilning ma'nosini o'quvchimizdan takrorlash sifatida so'rashdan oldin shaklni tushuntirishning ba'zi usullarini tanlaymiz.

Talabalarni tilning o'ziga xos jihatlarini bilan tanishtirishning ikkita yondashuvi mavjud, ular deduktiv va induktivdir.

Deduktiv yondashuvda, masalan, talabalarga grammatik qoidalar beriladi yoki tushuntiriladi, va keyin bu qoidalarni tushuntirish asosida; ular yangi qoidalar asosida ushbu tilda ibora va gaplar tuzadilar [3]. Masalan, "hozirgi davomiy zamon"ni o'rgatish uchun o'qituvchi ma'lum harakatlar qilayotgan odamlarning rasmini ko'rsatishdan boshlaydi. Keyin u o'quvchilar e'tiborini hozirgi davom zamonining bir qator grammatik qurilmalariga qaratishdan oldin ushbu rasmlarning biriga misol tariqasida gap tuzadi (*masalan, U uyni ranglayapti.*). O'qituvchi takrorlash, imo-ishoralar (masalan, barmoqlar yoki qo'llar birlashishi)ni "he" va "is" doim birga ishlatilishi kerakligini tushuntirishda qo'llashi mumkin. Shundan so'ng o'quvchilar keyingi rasimga o'tishdan oldin gapni takrorlaydilar va bu yerda o'qituvchi yana bir bor gapni o'zi tuzadi.

Ko'rinib turibdiki, ushbu tushuntirish va amaliyotda qo'llash usuli til tizimini o'qitishning jihatlarini uchun juda to'g'ridan-to'g'ri tartibda bo'lib, elementlar ketma-ketligi "jalb etish-o'rganish-faollashtirish" sifatida namoyon bo'ladi. Bu ba'zi talabalar va tilning ba'zi elementlariga juda mos keladi. Agar talabalar bundan oldin ba'zi qoidalarni o'zlashtirgan bo'lsa, bu ular ega bo'lgan ma'lum bir malaka darajasiga to'g'ri kelmaydi.

Induktiv yondashuvda, o'quvchilar qoidalardan misollarga o'tish o'miga, ular ushbu tilda misollar ko'rishadi va o'zlari ushbu misollardan kelib chiqqan holda qoidalarni ishlab chiqishga harakat qilishadi. Masalan, talabalar matnni o'qigandan so'ng, biz ulardan turli xil o'tgan zamonga mos keladigan misollarni topishni so'rashimiz kerak va ular qanday qilib va nima uchun ishlatilishini aytib o'tishimiz kerak. Bu bumerang-tipdagi dars, dars ketma-ketligi "jalb etish-faollashtirish-o'rgatish" sifatida paydo bo'ladi. Tilni o'rganishning bunday usuli matnlarni o'qish va tinglab tushunish bo'yicha ko'nikmalari ustida ishlash jarayonida o'rinli bo'ladi. Tushuntirish va mashq qilish ketma-ketligida, agar o'qituvchi talabalar ba'zi so'zlar qanday joylashishini tushunishini xoxlasa, u ularga so'zlar va so'z birikmalari haqida aytib berishi mumkin.

Ba'zi kontekstlarda induktiv yondashuv ko'proq mos keladi, chunki u tilni tabiiy o'zlashtirishga ko'proq mos keladi, u tillararo rivojlanish tushunchasiga osongina mos keladi, bu talabalarga grammatik tushuntirishlar bilan to'ldirilib tashlanishidan oldin kommunikativ "tuyg'ularni" olish imkonini beradi va qoidalar berilishidan ko'ra ularni kashf qilish orqali ko'proq ichki motivatsiyani yaratadi.

Yangi so'zning ma'nosini tushuntirish. Biror narsaning ma'nosini tushuntirishning eng aniq usullaridan biri uni ko'rsatishdir. Biz biror narsaning nomini aytayotganda uni ushlab turamiz va unga ishora qilamiz. Yoki harakatlar uchun "mimika" dan foydalanishimiz mumkin. "Yugurish" so'zini o'rgatganimizda yugurayotgan kimgadir taqlid qilishimiz mumkin. Sifatning qiyosiy darajasini tushuntirishda masalan katta – kattaroq va hokazo kabi sifatlarni ko'rsatish uchun biz qo'llarimiz va kaftlarimiz yordamida ishora qilishimiz mumkin. Yoki qayg'uli, baxtli va shu kabi so'zlarning ma'nosini tushuntirish uchun yuz ifodamizdan foydalanishimiz mumkin.

Bundan tashqari, biz vaziyat va tushunchalarni tushuntirish uchun rasmlardan foydalanamiz. Biz, ho'l sochlari bilan basseyndan endigina chiqib kelayotgan odamning rasmini "u shu vaqtgacha suzayotganligini" ko'rsatish uchun ishlatamiz.

Ma'noni mutlaqo aniq qilishning yana bir usuli, albatta, so'zlarni yoki iboralarni tarjima qilishdir. Ba'zan bu oson, lekin ba'zida qiyin. Aksariyat tillarda so'z ekvivalent mavjud, lekin ba'zi iboralar yoki idiomalarni esa tarjima qilish qiyin (masalan, inglizcha idiomalar; devil may-care attitude, to pull the wool over someone eyes'). Ma'noni samarali tushuntirishning bir hiylasi – tushuntirilishi kerak bo'lgan ma'noga mos keladigan eng yaxshi metodni tanlashdir.

Til qurilishini tushuntirish. Yuqoridagi usullardan tashqari, biz qo'llarimiz bilan vaqtni urish orqali jumla urg'usini ham ko'rsatishimiz mumkin. Ohangni havoda chizish orqali biz intonatsiyani ko'rsatishimiz mumkin. Ba'zi talabalar grafik imo-ishoralarni yetarli deb bilishadi, boshqalari esa doska va proyektorlarda yozma tushuntirish yoki diagrammalarni ko'rishni yaxshi ko'radilar.

Agar biz uchinchi tipdagi shart ergash gaplarni o'rgatayotgan bo'lsak, doskaga quyidagilarni yozishimiz mumkin:

If + has + past participle → would have + past participle

Proyektor yordamida o'qituvchi biz o'rgatayotgan konstruksiyani, masalan, grammatik qurishga e'tiborni qaratish uchun, yoki bo'lmasam, sarlavhalarning yozilish usulini va ko'rsatish yoki ishora qilish uchun ishlatiladigan olmoshlarni tekst ichidan ko'rsatishda o'qituvchi kerakli joylarga e'tibor qaratilishi maqsadida ularni aylanaga olishi mumkin. Xuddi shu narsani interfaol doska kabi texnologik qurilmada ham qilish mumkin.

Eng so'nggisi, ko'pincha eng oson tilni tushuntirish kerak. Misol uchun, agar biz o'quvchilar 'Present simple' da uchinchi shaxs birligi haqidagi qoidani talabalar tushunishlarini istasak, quyidagilarni aytishimiz mumkin:

Biz *I play, you play, we play, they play*, deymiz lekin he, she va it olmoshlaridan keyin "–s" qo'shamiz.

Qarang: *I play ..., you play ... he plays ..., we play, it plays...*

Amaliyot va nazorat qilinadigan amaliyot. Talabalardan o'rganayotgan tilni sinab ko'rishlari va aytilish yoki yozishga odatlanishlari uchun mashq qilishni so'raymiz va bunda agar o'quvchilar xatolikka yo'l qo'ysalar, ularni tuzatishimiz mumkin.

Bu amaliyot ularga ichki ongni egallashga yordam beradi, Til qanday tuzilganligi ularning qisqa muddatli xotirasidan uzoq muddatli xotirasiga o'tadi. Qisqa muddatli xotira - bu narsalarni ishlatgunga qadar saqlanadi, uzoq muddatli xotirada esa biz saqlamoqchi bo'lgan narsalar qancha kerak bo'lsa shuncha saqlanadi.

Agar biz o'quvchilarning uzoq muddatli xotirasiga ma'lum bir til elementlarini kiritmoqchi bo'lsak, bir martalik mashg'ulot yetarli bo'lmaydi. Biz talabalarning yangi so'zlarni, iboralarni va grammatikani qayta-qayta ko'rishlarini ta'minlashimiz kerak.

Grammatikani o'rgatish usullaridan biri tushuntirish va amaliyot jarayonlaridan foydalanishdir. Agar biz Hozirgi Oddiy Zamonda odatiy harakatlarni o'rgatmoqchi bo'lsak, o'quvchilarga qiziqarli mashg'ulotga ega bo'lgan odamning rasmlarini ko'rsatishimiz mumkin. Biz rasmni va misol gapni ko'rsatamiz, tekshirish savollaridan foydalanamiz va 3-shaxs fe'lni (-s bilan) ajratamiz, so'ngra gapni yana bir marotaba tuzib o'quvchilarni jo'r bo'lgan holda va yakka tartibda takrorlashni so'raymiz. Keyingi qadam, boshqa rasmni ko'rsatamiz va endi o'quvchilardan jummalarni mustaqil o'zlari tuzishlarini so'raymiz. Fe'lni (3-shaxs fe'lni -s bilan) ajratib olamizda va jo'r bo'lib va yakka tartibda takrorlashlarini so'raymiz, undan keyin esa tezkor savol-javob mashqlarini boshlaymiz. Nihoyat, talabalar sinfga o'zlarining shaxsiy yoki oilaviy odatiy harakatlari haqida aytib berishadi.

Agar biz kashfiyot usulidan foydalansak, masalan, "If ergash gapli shart gap"ni o'rgatish uchun, biz o'quvchilardan juftlik yoki guruhlarda bobo va buvilari haqida o'ylashni so'rashdan boshlashimiz mumkin. Ulardan daftarlariga sifatlarini muhokama qilishni va yozishni so'raymiz. Keyin, bolalar kitobidan parcha o'qishlarini so'raymiz. Ularning vazifasi sifatlar hikoyaga mos keladimi yoki yo'qligini ko'rishdir. Shundan so'ng, "If-gapli jummalarni" topishni va ularni tahlil qilishni so'raymiz. Keyingi qadam, ularga jumlar haqida savollar berish va muhokama qilish bo'ladi. Davom etish

uchun ulardan hozirgina o'rganilagan grammatik qoidalardan foydalanib, o'z jumllarini tuzishni so'rashimiz va yana bir nechta gaplarni ko'rsatish mumkin. Keyin, ulardan if-gaplarini o'z ichiga olgan suhbat yozishlarini so'rash mumkin. Nihoyat, ular rolli o'yin o'ynashlari mumkin. Bu yerda talabalar tilga qarashadi va o'zlariga tegishli xulosaga kelishadi.

Talaffuzni o'rgatishda masalan, o'smirlar yoki kattaroq talabalar uchun bir ayol bir erkakdan biror narsa qilishni so'ragani haqidagi suhbatni tinglashlarini so'rashimiz mumkin. Talabalardan intonatsiya va ovoz balandligidan kelib chiqqan holda, u erkak ayolga yordam beradimi yoki yo'qligini aniqlashlarini so'rahimiz mumkin. Erkak "albatta yo'q", "bo'lishi mumkin", "yaxshi", "men o'ylaymanki" deyishini muhokama qiling. Keyin talabalardan biror narsa qilishni so'rashlarini so'rang va biz ma'noni ko'rsatish uchun turli intonatsiya naqshlarida javob beramiz. Nihoyat, ulardan iborani juft yoki guruhlarda ishlatishni so'raymiz, bunda javob beruvchi o'quvchilar (intonatsiya yordamida) ma'noni ko'rsatishlari kerak.

Biz intonatsiyani boshqa yo'llar bilan o'rgatishimiz ham mumkin, tinish belgilaridan foydalanish va jumlaning turli vaziyatlarda ishlatish orqali. Birinchisida, o'rta sinf o'quvchilari uchun tinish belgilarisiz iboralar yoki jummalarni ko'rsatamiz, so'ngra talabalar audioni eshitadilar (magnitafon orqali yoki o'qituvchi tomonidan o'qiladi). Keyin talabalar iboralar/jummalarning qayerida nuqta, savol belgisi, undov belgisini qo'yish yoki qo'yish kerak emasligini hal qilishlari kerak bo'ladi. Nihoyat, ular iboralarni uch xil usulda aytishni mashq qiladilar (darak, so'roq va undov). Ikkinchisida, talabalarni turli vaziyatlarda bir xil jumlaning qanday aytishlari haqida o'ylashlarini so'raymiz. Misol uchun, biz "xayrli tong, janob Jon" deb aytamiz, go'yo (a) ular ilgari hech qachon uchrashmagan, (b) u ulardan qarzdor, (c) ular uni juda yaxshi ko'rishadi, lekin bu juda yaqqol bilinishini xoxlamaydilar. Braun talaffuzni o'rgatish texnikasini taqdim etadi, bunda, savol va javoblarning qisqa nutqlarini o'z ichiga olgan qisqa dialoglardan foydalanishni taklif etadi. Talabalar dialogni tinglashadi, so'ngra skriptda intonatsiyani (ko'tarilish yoki tushish) belgilaydilar. Oxirida esa ovoz balandligining ma'noga ta'sirini muhokama qilish va dialogni mashq qilish mumkin.

Qo'shiqlar va Ashulalar: bolalarga qo'shiqlar va ashulalar ritm uchun yaxshi, ayniqsa ular urg'uni oson va murakkablashtirmasdan tushunib olishadi va buni hattoki tushuntirish shart bo'lmay qoladi. Ba'zi o'qituvchilar ritm uchun jazz qo'shiqlaridan foydalanadilar. So'zlar qarsak chalish va oyoq bilan yerni urish jo'rligida ritmik tarzda aytiladi. Ovozni o'rgatganimizda, biz o'quvchilarning nafaqat to'g'ri gapirishlarini, balki tovush va imlo yozishmalarini ham bilishlarini xohlaymiz. Biz ular o'xshash tovush fonemalarini farqlay olishlarini ham xohlaymiz. Misol uchun, biz so'zlarni faqat bitta tovush o'zgarishi boshqa tovush o'zgarimaydigan so'zlar bilan talaffuz qilish yoki farqlash uchun minimal juftlik mashqlarini bajarishimiz mumkin ("sheep-qo'y" va "ship-kema", "hat-shlyapa" va "hut-kulba"). Talabalar jumlaning eshitadilar va ular har bir holatda eshitgan so'zni aylana olishlari kerak. Biz so'zlarni modellashtirishimiz mumkin. Unli tovushlar bo'lsa, biz o'quvchilar labga e'tibor berishlariga ishonch hosil qilishimiz kerak "ship-kema" (bo'sh yoyilgan) va "sheep-qo'y" (cho'zilgan) lab pozitsiyasini yozib oishlari kerak. Bu kabi minimal juftlik so'zlar, jumlar va iboralar ishlatilishiga qarab har qanday yoshdagi har qanday darajadagi talabalar bilan ishlatilishi mumkin. Shunga qaramay, chizmalar va kartalar yosh bolalarga yordam beradi, shunchaki ularni kartalardagi so'zlardagi tovushga qarab turli guruhlarda turishlari kerak bo'ladi xolosi. Bu mashq kinestetik o'rganuvchilarga yordam berishi mumkin.

Ovoz va imlo: Ingliz tilini o'rganayotgan ba'zi talabalar uchun qiyinchiliklarning asosiy sababi tovush va imlo o'rtasidagi o'xshashlikning kamligi. Quyida biz imlo va tovushni farqlash uchun bajarilishi mumkin bo'lgan ba'zi bir tartiblarni havola etmoqchimiz. Birinchidan, biz talabalarga ma'lum bir imloga ega bo'lgan so'zlar ro'yxatini beramiz (masalan, "ou" harflari birikmasi uchraydigan so'zlar "Rough-qo'pol", "tough-qattiq", "ought-kerak", "bought-sotib olingan", "thought-o'ylangan" va hokazolar). Ular so'zlarni "ou"ning turli talaffuz usullariga ko'ra guruhlashlari kerak.

Ovoz va imloni o'rgatish uchun Brown mazmunli minimal juftlik mashqlarini taklif qiladi (masalan: pen - pin). U, shuningdek, kichik kontekstualashtirishdagi mazmunli minimal juftlikning ro'yxatini tuzadi masalan, *O'qituvchi: This pen leak. Talabalar: Then don't write with it. O'qituvchi: This pen leaks. Talabalar: Then don't cook with it.*

Tezaytishlar: biz ma'lum bir tovush yoki tovushlardan foydalanadigan qofiyalar va tezaytishlarni shakllantirishimiz mumkin va talabalar ularni takrorlashlari mumkin, masalan. "D" tovushi uchun "George judges jewels jealously".

Nunan ravonlik va ritmi o'rnatishga qiziqishni saqlab qolish uchun ko'plab usullarni: butun sinf va guruhlar bilan takrorlash, o'quvchilarni sobit tartibda chaqirish yoki tasodifiy holda chaqirish, talabalar kitobi yopiq yoki o'quvchilar kitobi ochiq holatda bo'lishi, har bir talaba yoki guruh ikki yoki uch marta takrorlashi yoxud boshqa o'quvchi yoki guruhga navbatni berishdan oldin faqatgina bir martalik takrorlash, sekin tempda yoki tez tempda, ovoz ohangi; neytral, yoki sirliligi; g'olibona yoki ifodaliligi, baland ovozda yoki past, zo'rg'a eshitiladigan ohangdaligi oratorikdan farq qiluvchi usullarni taklif qiladi.

Talaffuzni o'rgatishda eng kerak bo'lgan muhim narsa shundaki, talabalar ingliz tilini og'zaki tinglash uchun imkon qadar ko'proq imkoniyatga ega bo'lishlari kerak. Doskaga yangi so'zni yozish kerak bo'lganda yozishimiz va yuqorida muhokama qilingan usullardan birini qo'llagan holda so'z yoki iboraning qayerida urg'u berilganligini ko'rsatishimiz kerak bo'ladi.

So'z boyligini o'rgatish. Ikkinchi tilde yangi so'zni o'rganish o'qitishning eng oson jihati edi va u sinfda rasmiy e'tiborni talab qilmas edi. Shunga asosan, biz lug'atni o'rgatishga juda katta e'tibor berishimiz kerak, chunki u muloqotda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich darajada o'qituvchi tez-tez tushuntirish va amaliyot tartib-qoidalaridan foydalanadi. Misol uchun, bizda charchagan, qayg'uli, xursand bo'lgan va hokazolarni ko'rsatadigan flesh-kartalarning individual rasmlari bo'lishi mumkin. Keyin biz rasmi ko'tarib, uni ko'rsatamiz va imo-ishora orqali esnash holatini ko'rsatgan holda so'zni nima ekanligini bildiramiz (masalan, "tired ... she is tired"). Keyin biz so'zni ko'rsatamiz va o'quvchilarni takrorlashini iltimos qilamiz. Keyin biz keyingi rasmi ushlab turamiz (yoki ishora qilamiz) va so'zni aytamiz. Talabalar ko'proq so'zlarni o'rganganlarida, biz o'quvchilar to'g'ri so'zni aytishlari uchun turli xil kartalarni ushlab turamiz va bunda talabalar javob mashqini bajaradi, ya'ni taaba suratda berilgan rasm qanday so'z ekanligini to'g'ri topishi kerak bo'ladi. Keyin talabalar so'zlarni o'z jumllarida ishlatishlari mumkin.

Deyarli boshlang'ich darajani bitirgan sinflar uchun biz turli talabalar turli xil leksik elementlarni bilishadi deb taxmin qilishimiz mumkin. Uni ishlatishning bir usuli bu sinfni o'z lug'at daraxtini yaratishini so'rashdir. Biz biror "mavzu" so'zini yozamiz, talabalardan diagrammani (daraxtni) iloji boricha kengroq qilishlarini so'raymiz. Ehtimol, biz ularni shu mavzuning yana bir bo'lakiga ko'ra kichik guruhlariga ajratishimiz mumkin. Yoki, talabalar doskaga chiqib, bo'r yoki marker yordamida sxemaga birma-bir so'z qo'shib qo'yishadi. Buni bajarayotganda (yoki diagramma bajarilgandan so'ng) biz imlo va talaffuzda yordam bera olamiz yoki biz daraxtni to'ldirishda yetishmayotgan deb hisoblagan muhim deb bilgan so'zlarimizni qo'shishimiz mumkin.

Yuqori sinflarda biz o'quvchilardan so'zlarning qanday ishlatilishi haqida qaror qabul qilishda ko'proq mas'uliyatni o'z zimmlariga olishlarini so'rashimiz mumkin. Birinchidan, biz ulardan mavzu so'zini (masalan, sevimli ob-havo) aytishni so'raymiz, so'ngra ular so'zlar bilan bog'liq jadvalni to'ldirish orqali til tadqiqotini o'tkazadilar (qaysi so'zlar eng og'ir yoki eng og'ir bo'lmagan ob-havoga tegishlilikiga qarab). Ular lug'atlar yoki CD xonasiga murojaat qilishlari yoki bir-birlari bilan muloqotlashishlari mumkin. Ular vazifalarini tugatgach, biz boshqa so'zlarni jadvalga qo'yamiz. Ular so'zlarni yana bir bor tadqiq qiladilar va agar ular qiynalib qolsa, biz ularga yordam beramiz. Keyin talabalar bir-birlariga mavzu bo'yicha o'zlarining tajribalarini aytib berishlari so'raladi (masalan, eng yomon ob-havo). Nihoyat, o'quvchilarga turli xil ob-havo metaforalari uchraydigan matn o'qish so'raladi. Ular o'zlarining ixtiro qiladigan hikoyalarida lug'atlardan foydalanishni so'rashdan oldin, ular tekstdan ob-havo metaforasini topishni so'raymiz.

Bundan tashqari, Nattinger so'z boyligini rivojlantirishning ba'zi usullarini ifodalaydi [4]. U ularni ikki guruhga ajratadi. Birinchisi, kontekstga oid maslahatlar, so'z morfologiyasi, mnemonik qurilmalar, joylashuvlar, juftlashgan assotsiatsiyalar, kalit so'z, umumiy jismoniy javob, kognitiv chuqurlik, rasmiy guruhlash, so'z turkumlari, tarixiy, orfografik o'xshashliklar va birikmalarni o'z ichiga olgan tushunish uchundir. Ikkinchisi ishlab chiqarish uchun; pidginizatsiya, vaziyat to'plamlari, semantik to'plamlar va birikmalar.

Tezaytishlar: biz ma'lum bir tovush yoki tovushlardan foydalanadigan qofiyalar va tezaytishlarni shakllantirishimiz mumkin va talabalar ularni takrorlashlari mumkin, masalan. "D" tovushi uchun "George judges jewels jealously".

Nunan ravonlik va ritmi o'rnatishga qiziqishni saqlab qolish uchun ko'plab usullarni: butun sinf va guruhlar bilan takrorlash, o'quvchilarni sobit tartibda chaqirish yoki tasodifiy holda chaqirish, talabalar kitobi yopiq yoki o'quvchilar kitobi ochiq holatda bo'lishi, har bir talaba yoki guruh ikki yoki uch marta takrorlashi yoxud boshqa o'quvchi yoki guruhga navbatni berishdan oldin faqatgina bir martalik takrorlash, sekin tempda yoki tez tempda, ovoz ohangi; neytral, yoki sirliligi; g'olibona yoki ifodaliligi, baland ovozda yoki past, zo'rg'a eshitiladigan ohangdaligi oratorikdan farq qiluvchi usullarni taklif qiladi.

Talaffuzni o'rgatishda eng kerak bo'lgan muhim narsa shundaki, talabalar ingliz tilini og'zaki tinglash uchun imkon qadar ko'proq imkoniyatga ega bo'lishlari kerak. Doskaga yangi so'zni yozish kerak bo'lganda yozishimiz va yuqorida muhokama qilingan usullardan birini qo'llagan holda so'z yoki iboraning qayerida urg'u berilganligini ko'rsatishimiz kerak bo'ladi.

So'z boyligini o'rgatish. Ikkinchi tilde yangi so'zni o'rganish o'qitishning eng oson jihati edi va u sinfda rasmiy e'tiborni talab qilmas edi. Shunga asosan, biz lug'atni o'rgatishga juda katta e'tibor berishimiz kerak, chunki u muloqotda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich darajada o'qituvchi tez-tez tushuntirish va amaliyot tartib-qoidalaridan foydalanadi. Misol uchun, bizda charchagan, qayg'uli, xursand bo'lgan va hokazolarni ko'rsatadigan flesh-kartalarning individual rasmlari bo'lishi mumkin. Keyin biz rasmi tarib, uni ko'rsatamiz va imo-ishora orqali esnash holatini ko'rsatgan holda so'zni nima ekanligini bildiramiz (masalan, "tired ... she is tired"). Keyin biz so'zni ko'rsatamiz va o'quvchilarni takrorlashini iltimos qilamiz. Keyin biz keyingi rasmi ushlab turamiz (yoki ishora qilamiz) va so'zni aytamiz. Talabalar ko'proq so'zlarni o'rganganlarida, biz o'quvchilar to'g'ri so'zni aytishlari uchun turli xil kartalarni ushlab turamiz va bunda talabalar javob mashqini bajaradi, ya'ni taaba suratda berilgan rasm qanday so'z ekanligini to'g'ri topishi kerak bo'ladi. Keyin talabalar so'zlarni o'z jumlarida ishlatishlari mumkin.

Deyarli boshlang'ich darajani bitirgan sinflar uchun biz turli talabalar turli xil leksik elementlarni bilishadi deb taxmin qilishimiz mumkin. Uni ishlatishning bir usuli bu sinfni o'z lug'at daraxtini yaratishini so'rashdir. Biz biror "mavzu" so'zini yozamiz, talabalardan diagrammani (daraxtni) iloji boricha kengroq qilishlarini so'raymiz. Ehtimol, biz ularni shu mavzuning yana bir bo'lakiga ko'ra kichik guruhlariga ajratishimiz mumkin. Yoki, talabalar doskaga chiqib, bo'r yoki marker yordamida sxemaga birma-bir so'z qo'shib qo'yishadi. Buni bajarayotganda (yoki diagramma bajarilgandan so'ng) biz imlo va talaffuzda yordam bera olamiz yoki biz daraxtni to'ldirishda yetishmayotgan deb hisoblagan muhim deb bilgan so'zlarimizni qo'shishimiz mumkin.

Yuqori sinflarda biz o'quvchilardan so'zlarning qanday ishlatilishi haqida qaror qabul qilishda ko'proq mas'uliyatni o'z zimmlariga olishlarini so'rashimiz mumkin. Birinchidan, biz ulardan mavzu so'zini (masalan, sevimli ob-havo) aytishni so'raymiz, so'ngra ular so'zlar bilan bog'liq jadvalni to'ldirish orqali til tadqiqotini o'tkazadilar (qaysi so'zlar eng og'ir yoki eng og'ir bo'lmagan ob-havoga tegishlilikiga qarab). Ular lug'atlar yoki CD xonasiga murojaat qilishlari yoki bir-birlari bilan muloqotlashishlari mumkin. Ular vazifalarini tugatgach, biz boshqa so'zlarni jadvalga qo'yamiz. Ular so'zlarni yana bir bor tadqiq qiladilar va agar ular qiynalib qolsa, biz ularga yordam beramiz. Keyin talabalar bir-birlariga mavzu bo'yicha o'zlarining tajribalarini aytib berishlari so'raladi (masalan, eng yomon ob-havo). Nihoyat, o'quvchilarga turli xil ob-havo metaforalari uchraydigan matn o'qish so'raladi. Ular o'zlarining ixtiro qiladigan hikoyalarida lug'atlardan foydalanishni so'rashdan oldin, ular tekstdan ob-havo metaforasini topishni so'raymiz.

Bundan tashqari, Nattinger so'z boyligini rivojlantirishning ba'zi usullarini ifodalaydi [4]. U ularni ikki guruhga ajratadi. Birinchisi, kontekstga oid maslahatlar, so'z morfologiyasi, mnemonik qurilmalar, joylashuvlar, juftlashgan assotsiatsiyalar, kalit so'z, umumiy jismoniy javob, kognitiv chuqurlik, rasmiy guruhlash, so'z turkumlari, tarixiy, orfografik o'xshashliklar va birikmalarni o'z ichiga olgan tushunish uchundir. Ikkinchisi ishlab chiqarish uchun; pidginizatsiya, vaziyat to'plamlari, semantik to'plamlar va birikmalar.

Biroq, lug'at haqidagi bilim o'quvchilarning savodxonligini rivojlantirishda muhim rol o'ynasada, ko'p o'qituvchilar dars vaqtlarining kam qismini lug'at o'rgatishga bag'ishlaydilar [5]. Makkarten so'z boyligining chastotasi haqida yana besh narsani ta'kidlaydi; so'zlashuv va yozishdagi turli lug'at, qo'llanish konteksti, birlikma (qaysi so'zlar ko'pincha birga qo'llaniladi) grammatik naqshlar va lug'atning strategik ishlatilishi.

Xulosa. Ushbu maqolada biz asosan Harmer til tizimlarini o'qitish bo'yicha takliflarini muhokama qildik [6]. U bizga takrorlash va nazorat qilinadigan amaliyot har qanday o'rganish ketma-ketligining bir qismi ekanligini aytadi. Keyin u deduktiv yondashuvlar (tushuntirish va amaliyot) va induktiv yondashuvlar (kashfiyot faoliyati) o'rtasidagi farqni aniqlaydi, bu yerda talabalar o'zlari uchun qoidalarni o'zlari kashf etadilar va topadilar. Keyingi qismda, Harmer, shuningdek Biz ham ma'noni tushuntirishning turli usullarini batafsil muhokama qildik, shu jumladan mimika, imo-ishoralar, ro'yxat tuzish, tarjima qilish, rasmlardan foydalanish va hokazolar kabi. Shuningdek, biz nazorat ostidagi amaliyotni tashkil qilishning turli usullarini, jumladan, tezkor savol-javob qilish mashqlari, xor va individual tarzda takrorlash mashqlarini ko'rib chiqdik. Keyingi qismlarda biz talabalar o'rganayotgan tilidan ko'proq ijodkorlik bilan foydalanishiga zamin yaratadigan erkinroq amaliyotni muhokama qildik. Keyin, Harmer grammatika, talaffuz, lug'at va funksiyani o'rgatish uchun batafsil dars ketma-ketligini muhokama qilgan. Har bir holatda biz "tushuntirish va mashq qilish" ketma-ketligini, shuningdek, ko'proq kashfiyotga qaratilgan misollarni ko'rdik.

Harmer o'z kitobida nimani tushuntirgan bo'lmasa, ularning barchasini o'qituvchi amaliyotida qo'llay olishi mumkin. Shunga qaramay, o'quvchi sifatida biz hali ham til tizimlarini o'rgatishning to'g'ri yo'lini aytib beradigan boshqa manbalarni o'qishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brown, H. Douglas. 2001. *Teaching by Principles, An Interactive Approach to Language Pedagogy*. New York: Addison Wesley Longman
2. Harmer, Jeremy. 2007. *How to Teach English*. Essex – England: Pearson Education Limited
3. Jhonson, Keith. 2001. *An Introduction to Language Learning and Teaching*. Harlow Essex England: Pearson Education Limited
4. McCarten, Jean. 2007. *Teaching vocabulary, Learning from Corpus, Learning for Classrooms*. New York; Cambridge University Press
5. Nattinger, J. (1988). "Some Current Trends in Vocabulary Teaching" in Carter, R. and McCarthy, M. *Vocabulary and Language Teaching*, London: Longman
6. Nunan, David. 1991. *Language Teaching Methodology; a textbook for teachers*. Norwich: Prentice Hall International.
7. Oxford Advanced Learner's Dictionary, 1989

UO'K 37.016:81

CHET TILI O'QITISH METODIKASIDA LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKKA OID TIL BIRLIKLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH R.U.Sindorov, tayanch doktorant, SamDChTI, Samarqand

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashtirilgan jamiyatda madaniyatlararo munosabatlar izchilligini talab qilish, shaxsni milliy va umuminsoniy madaniyat dunyosida munosib o'rin egallashi, xorijiy tillarga oid kommunikativ kompetensiyalarni egallashda mahalliy til, tili o'rganilayotgan mamlakat va jahon madaniyati borasidagi bilimlar, ijtimoiy munosabatlar va an'analardan samarali foydalanish bugungi kun davr talabi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Globallashtirilgan jamiyat, madaniyatlararo munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar, an'analardan samarali foydalanish, lingvomadaniy birliklar, nutqiy etiketlar, frazeologik va paremiologik birliklar.

Аннотация. В данной статье рассматривается требование системности межкультурных отношений в глобализованном обществе, достойного места личности в мире национальной и общечеловеческой культуры, эффективного использования знаний, социальных отношений и традиций местного языка, страны, где язык изучается, а мировая культура в приобретении коммуникативных компетенций, связанных с иностранными языками, сегодня является велением времени.

